

**O‘ZBEK BOLALAR FOLKLOR QO‘SHIQLARI – YOSH AVLOD MUSIQA
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MA’NAVIY POYDEVORI**

Raxmonberdiyeva S.M.

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti,

Musiqiy ta’lim kafedrasida o‘qituvchisi.

raxmonberdiyevasurayyo@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar folklor qo‘shiqlarining yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashda asosiy vosita ekanligi, bu qo‘shiqlar bolalarda musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishi, milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik hissini tarbiyalaydi shuningdek yosh avlod musiqqa madaniyatini shakllantirishning ma’naviy poydevori ekanligi haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Folklor, qobiliyat, marosim, ertak, aytishuv, jismoniy harakat, ta’lim-tarbiya, vatanparvarlik, ohang, o‘yin.

Аннотация: В данной статье описывается тот факт, что детские фольклорные песни являются основным средством духовного, нравственного и эстетического воспитания молодого поколения, что эти песни развивают музыкальные способности детей, воспитывают чувство национальной идентичности и патриотизма, а также являются духовной основой для формирования музыкальной культуры молодого поколения..

Ключевые слова: Фольклор, способность, церемония, сказка, рассказывание историй, физическая активность, образование, патриотизм, мелодия, игра.

Abstract: This article describes the fact that children's folk songs are the main means of spiritual, moral and aesthetic education of the younger generation, that these songs develop children's musical abilities, foster a sense of national identity and patriotism, and are also the spiritual basis for the formation of the musical culture of the younger generation.

Key words: Folklore, ability, ceremony, fairy tale, storytelling, physical activity, education, patriotism, melody, game.

KIRISH

O‘sib kelayotgan yosh avlod ongiga, ularning ruhiyatiga, axloq-odobiga, dunyoqarashiga ta’sir etuvchi asosiy vositalardan biri musiqqa san’atidir. U insonni jamiyatga va tabiatga to‘g‘ri insoniy munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Musiqqa san’ati bolaning shaxs sifatida har tomonlama kamol topishida benihoya katta ahamiyat kasb etib, ularni jaholatdan madaniyat sari yetaklovchi qudratga ega.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining ajralmas qismi bo‘lgan bolalar folklor qo‘shiqlari

asrlar davomida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashda asosiy vosita bo'lib kelgan. Bolalar folklor qo'shiqlari xalqimizning o'ziga xos hayot faoliyati davomida inson yoshlik davrining muayyan bosqichlariga mos ravishda kichik yoshdagi bolakaylar olami bilan kattalar dunyoqarashining uyg'unlashuvi ostida shakllanib kelgan. O'zbek xalq bolalar qo'shiqlari-milliy madaniyatimizning muhim qismi bo'lib, bolalar ruhiyatiga mos soddaligi, takrorlanmas melodik va ritmik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bolalar qo'shiqlari qaysi xarakterda yoki qaysi janrda bo'lishidan qat'iy nazar, melodik jihatdan oddiy va sodda tuzilishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, unda ishtirok etadigan she'riy yoki nasriy matn ham bolalarga xos tushunarli va ravon shaklga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Asrlar davomida bolalar folklor qo'shiqlari o'yin bilan, tabiat bilan, marosimlar va bayramlar bilan bog'liq holda shakllanib kelgan. Ayniqsa ular ertak qahramonlari, tabiat xodisalari, birinchi ochilgan gul, qushlar, tong otishi yoki kun botishi to'g'risida kuylangan kichik va sodda shakldagi musiqiy asarlar, bundan tashqari topishmoqlar, tez aytish, atishuv va boshqa shakllarda ijro etilgan.

Mavsumiy marosim qo'shiqlarining eng ko'p namunalari go'zal bahor fasli va undagi asosiy sana - Navro'z bayramiga bog'liq ijod etilgan. Bu toifa namunalar asosan bolalar folklori tarzida bizgacha yetib kelgan. Chunki bolalar ham kattalar qatorida aksariyat marosimlarda qatnashib kelganlar. O'tmishda bahor elchilari sifatida ayrim qush va ko'klam o'simliklari alohida e'zozlangan va, hatto, ular bilan bog'liq turli ishonch va qarashlar ham shakllangan. Masalan, erta bahorda laylakni ko'rish baxtdan nishona bo'lsa, laylak uchib kelgan tomondan kelgan odam qishloqqa qut-baraka keltiradi, deb e'tiqod qilingan. Turnalar ham ko'p narsadan «darak» bergan. Chunonchi, barvaqt uchib kelgan turna erta bahorni daraklasa, pastlab uchgan turna rizq - ro'zg'or unumli bo'lishini anglatgan. Bahor elchilarini birinchi bo'lib ko'rgan odam bu xaqda boshqalarni ham tezroq xabardor etib, «xushxabarchilar» baland joylarga chiqib, maxsus hayqiriqlar ila atrofga jar solishgan. Xushxabarni eshitgan katta - kichik to'planishib, bu xaqda qishloqma – qishloq, maxallama - maxalla «jar solib» yurishgan.

O'zbek xalq musiqa merosida bolalar folklori qo'shiqlari namunalari kattagina qismini tashkil etib, ularga «Boychechak», «Laylak keldi», «Qaldirg'och», «Chitti gul», «Oq terakmi, ko'k terak» «Olatoy», «Boychechak», Choriy – chanbar», «Chuchvara qaynaydi», «Zuv-zuv borag'ay» «Chillak», «Kim oladi - ya – shuginani – ya», kabi qo'shiqlar, bundan tashqari «Yo ramazon» kabi aytishuv shaklidagi qo'shiqlarni misol keltirishimiz mumkin. Bu qo'shiqlar orasida bolalar o'yin - qo'shiqlari alohida ajralib turadi, qo'shiqlar ijro xususiyatiga ko'ra kuylash bilan birga biror - bir jismoniy harakatlarni bajarish orqali ijro etiladi. Bunday qo'shiqlarni ijro etish davomida o'quvchi - yoshlarda qo'shiq kuylash malakalari bilan birga

chaqqonlik, sabr - toqat, chidamlilik, topqirlik va maqsadga intilish xislatlari shakllanadi. Qo'shiqlarning g'oyaviy - badiiy mazmuni esa yoshlarda estetik madaniyatni tarkib topishiga xizmat qiladi, shuningdek ta'lim-tarbiya jarayonida milliy ong va ijtimoiy ko'nikmalar shakllanishida ham muhim vositadir.

NATIJALAR

Kichik yoshdagi bolalarga folklor qo'shiqlarini o'rgatish avvalo bolaning o'z ona tili, milliy ohanglari va qadriyatlari bilan ilk tanishuvidir. "Boychechak", "Laylak keldi", "Oftob chiqdi" kabi qo'shiqlar orqali o'quvchi tabiatni sevishni, ona zaminga bog'liqlikni his etadi. Bu qo'shiqlardagi sodda va samimiy ohanglar bolaning milliy musiqiy tafakkurini boyitadi, milliy o'zlikni tarbiyalaydi, unda vatanparvarlik hissi uyg'ona boshlaydi.

Musiqqa darslarida xalq qo'shiqlaridan foydalanish bolalarning musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi:

Birinchidan ularda ritm tuyg'usini shakllantiradi, "Chittigul" yoki "Oq terakmi, ko'k terak" kabi o'yin-qo'shiqlar orqali bolalarda ritmni his qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Ikkinchidan ularda kuylash mahorati rivojlanadi, folklor qo'shiqlarining diapazoni bolalar ovoz imkoniyatlariga mos keladi, bu esa ularning sof intonatsiya bilan kuylashiga yordam beradi.

Uchunchidan musiqiy eshitish qobiliyati rivojlanadi, murakkab bo'lmagan, lekin boy milliy bezaklarga ega kuylar bolaning musiqiy xotirasini charxlaydi.

To'rtinchidan bu qo'shiqlar bolalarni axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalaydi, bu qo'shiqlarining mazmunida doimo yaxshilik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat va do'stlik ulug'lanadi. Masalan, turli mavsumiy qo'shiqlar orqali o'quvchilar xalq urf-odatlarini va dehqonchilik madaniyatini haqida tushunchaga ega bo'ladilar. Bu esa musiqqa madaniyatini shunchaki "tinglash" emas, balki "anglash" darajasiga olib chiqadi.

Musiqqa darslarida bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatishda dars samaradorligini oshirish uchun quyidagi uslublardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

Integratsiyalash: Qo'shiqni xalq o'yinlari va raqs harakatlari bilan birga o'rgatish.

Interfaol suhbat: Qo'shiq matnidagi tarixiy so'zlar va ramzlar haqida hikoya qilish.

Ijodiy yondashuv: Bolalarga qo'shiq matniga mos ravishda rasm chizdirish yoki kichik sahna ko'rinishi yaratish. |

XULOSA

O'zbek xalq bolalar qo'shiqlari — bu shunchaki o'tmish merosi emas, balki kelajak avlodning ma'naviy poydevoridir. O'quvchilarga ushbu durdonalarni tizimli ravishda o'rgatish ularning nafaqat musiqqa madaniyatini yuksaltiradi, balki komil inson bo'lib yetishishlarida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Musiqqa darsi orqali

xalqning ruhiyatini his qilgan bola, kelajakda san'atni qadrlaydigan va milliy qadriyatlarga sodiq shaxs bo'lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rauf Kadyrov. Music is pedagogical. T: Flow guide. "Music" published. 2018.
2. Rachmonberdieva, S. (2023). THE IMPORTANCE OF METHODS OF VOCAL PEDAGOGY IN THE EDUCATION OF THE VOICE OF STUDENTS IN THE PERIOD OF MUTATION. In *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* (pp. 142-145).
3. Raxmonberdiyeva, S. (2023). XOR BO'LIB KUYLASHDA VOKAL XOR MALAKALARINI SAMARALI SHAKLLANTIRISH USULLARI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(6), 158-162.
4. Raxmonberdiyeva, S. M. (2020). OQUVCHILAR ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA TINGLASH FAOLIYATINING TUTGAN ORNI. *Интернаука*, (1-3), 67-69.
5. Raxmonberdiyeva, S. M. (2021). MUSIQA DARSLARIDA BOLALARNING MUSIQIY IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARADORLIGI. *Интернаука*, (19-6), 15-16.
6. Raxmonberdiyeva, S. (2022). MTT DA BOLALARNI MAQOM ASARLARI TINGLATISHGA O'RGATISH VA UNI IDROK QILISH KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(7), 489-494.
7. Karimova, D. (2023). Musiqa o'qitishning pedagogik tashxisi va metodlari. *Наука и технология в современном мире*, 2(7), 47-49.
8. Karimova, D. A. (2023). Musiqa o'qitish metodikasi: boshlang'ich sinflarda musiqa tinglash faoliyati. *Science and Education*, 4(3), 389-394.
9. Karimova, D. (2023). METHODOICAL ANALYSIS OF LONDON SCHOOL IN MUSIC TEACHING TECHNOLOGY. *Solution of social problems in management and economy*, 2(2), 43-47.
10. Karimova, D. A. (2022). MUSIQA DARSLARIDA BOLALAR MUSIQA TUYG'USINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 288-294.